

SO‘Z BOSHI

Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi va “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini dunyo andozalari talablari darajasiga ko’tarish vazifasi yuklatilgan. Ayniqsa o’quv jarayoniga bosqichma-bosqich yangi pedagogik texnologiyalar va ishlanmalarni joriy qilib borish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu vazifani muvaffaqiyatli ado etishda o’qituvchi tayyorlaydigan oliy o’quv yurtlarining ham o’ziga xos o’rni bor.

Kimyoviy texnologiya kursi bo’lajak kimyogarlarda kasb mahoratini shakllantirishga qaratilgan fan bo’lib, uni o’qitishda ayniqsa laboratoriya tajribalariga katta ahamiyat beriladi. Chunki talabalar aynan ana shu mashg’ulotlarda kimyoviy ishlab chiqarishlarga oid ko’nikma va malakalarni egallaydilar. O’zbek tilida esa bu sohada mukammal qo’llanma va darsliklar deyarli yaratilmagan. Ushbu darslik aynan shu sohadagi yetishmovchilikni to’ldirishga qaratilgan bo’lib, uni tayyorlashda muallif respublikamizda amalga oshirilayotgan ilmiy-uslubiy tadqiqotlarning natijalari hamda shu kungacha qo’llanilib kelingan uslublardan ijodiy yondashib foydalangan.

Bo’lajak pedagog ixtisosi bo’yicha o’quvchilarni kasbga yo’naltirishning asosini kimyoviy texnologiyani chuqur o’rganish masalasini tashkil etadi. Bu fan talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishi, kimyo bilan kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish orasidagi bog’lanishlarning mohiyatini talqin qilishga yordam berishi, bo’lajak o’qituvchilarni kimyoviy texnologiyaga oid bilimlar majmuasi bilan qurollantirishi va amaliy malakalarini boyitishi bilan ahamiyatlidir. Ayrim laboratoriya tajribalari qiyinlik darajasiga qarab bir necha variantda berilgan va Keys-stadi savol topshiriglari qo’yilgan. Yani animasiya ko’rinishida xam dars mashg’uloti olib borilashi ko’zda tutilgan. Bu har bir oliy dargohning o’z imkoniyatlarini va jihozlar bilan ta’minlanganlik darajasiga qarab ish bajarish imkonini beradi.